

**DORISHUNOSLIK SANOATIDA FIZIKA FANINING O`RNI****N.T.Qodirova. K.K.SHadmanov**

Farmatsevtika ta'lim va tadqiqot instituti, Toshkent sh., O'zbekiston Respublikasi,  
email: nazokat@mail.ru, tel: +998995181369

Dolzarbligi. Dorishunoslik sanoatida aholini zamonaviy va mahalliy dori-darmonlar bilan ta'minlash hozirgi dolzarb masalalardan biri bo'lib hisoblanadi. Bu masalalarni hal etish uchun chuqur maxsus bilimga, amaliy ko'nikmalarga va yuqori nazariy bilimga ega bo'lgan mutaxassislarni tayyorlash zarurdir. Fizika fani tibbiyot, farmasevt va farmasevt muxandis-texnolog mutaxassislarni tayyorlashda asosiy fanlardan hisoblanadi. Chunki fizika asoslari tirik organizmlarda sodir bo'ladigan jarayonlarni, fizik mexanizmlarni, dori moddalarining harakatlari va ta'sirlarini o'rganishda keng qo'llaniladi. Bu esa tibbiy va farmasevtika oliygohi talabalariga fizika fanining mazmun va mohiyatini o'rgatish zarurligini ko'rsatadi.

Tadqiqot maqsadi. Talabalarda fizika fanini o'qitishning asosiy maqsadi talabalarni asosiy fizik hodisalar, inson organizmida kechadigan ayrim fizik jarayonlar, tibbiyotda qo'llaniladigan fizik asboblar va ularning mexanizmlari, qonuniyatlari va amaliy qo'llanishlari bilan tanishtirishdir.

Materiallar va usullar. Ishda zamonaviy axborot texnologiyalarida qo'llaniladigan yondashuvlar qo'llaniladi. Shuningdek, fizika fanining asosiy vazifasi talabalarda ilmiy-amaliy dunyoqarashni, ya'ni fizikaviy hodisalarning tabiatini to'g'ri tasavvur qilish, tabiiy fanlar sohasida qo'yilgan har bir aniq vazifalar mazmunini umumiy fizika qonunlari bilan bog'lash, asosiy fizikaviy o'lchov asbob-uskunalaridan foydalana bilish, fizika fanining rivojida o'zbek allomalarining qo'shgan hissalaridan g'ururlanishni shakllantirishdir. Talabalarning mustaqil ishlash malakasini, tahliliy mulohaza yuritish qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirishdan iboratdir. Fanni o'qitishdan maqsad - asosiy fizikaviy qonuniyatlari va ularning formulalarini, asosiy fizik jarayonlarning ma'nosi, mazmuni, harakat qonuniyatlari va ularning grafiklarini tahlil qilish, fizik kattaliklarining ma'nosini, birliklarini va ularni taqqoslashni, asosiy fizik qonun va prinsplarini mexanik hodisalarga qo'llay bilish, fizik tajribalar, namoyishlar va hodisalarni fizik qonun va prinsplari asosida

tavsiflash, fizikada qo'llaniladigan fizik qonunlar, ideallashtirilgan modellar va sxemalarning qo'llanilishi chegarasini bilishi talab etiladi.

Farmasevtika sohasining farmasevt va farmasevt muhandis-texnolog mutaxassisligi bo'yicha ta'lim olib muxandis-texnolog bo'lib chiquvchi talabalarga o'qitiladigan fizika va biofizika fanining maqsad va vazifasi barcha kimyo fanlarida, farmakologiyada, fizkalloid, dori turlari texnologiyasi fanlarida zamin tayyorlash, undan tashqari fizik-kimyoviy tahlil usullarining nazariy va amaliy asoslarini berish hamda ularning amaliy tadbiri bo'yicha malaka hosil qilishdan iborat.

Talabalarda fizika fanining maqsad va vazifalarini hamda ularni yechish usullarini quyidagi tartibda shakllantirish maqsadga muvofiq;

- Fizikaning asosiy qonunlari;
- Suyuqliklarning tarkibi va xossalarini;
- Moddani fizik tadqiqot qilish usullarining nazariy asoslarini;
- Moddaning fizik xossalari va xarakteristikalarini;
- Tirik organizmga ta'sir qiluvchi fizik omillarning xarakteristikalarini;
- Fizik asboblarning ishlash jarayonini;
- Fizik asboblardan ishlashda o'lchov talablarini;
- Laboratoriya ishlarini mustaqil bajara olishni;
- Texnika xavfsizligi qoidalarini;

Fan bo'yicha talabalarning bilim va ko'nikma malakalariga quyidagi talablarni qo'yish lozim. Talaba:

- fizika fani bo'yicha o'quv adabiyotlari va ma'lumotlardan foydalana bilish;
- olgan nazariy bilimlari asosida amaliy mashg'ulotlarni bajara olishi;
- olgan nazariy va amaliy bilimlarini mutaxassislik fanlarini o'zlashtirishda qo'llay bilishi;

- olgan nazariy va amaliy bilimlarini ish faoliyatida qo`llay bilishi, ko`nikma va malakalariga ega bo`lishi lozim;

Talaba fizika fanining boshqa fanlar bilan integratsiyalashuvini bilishi va fanni mukammal o`zlashtirishi uchun quyidagi fanlardan etarli bilim, ko`nikma va malakalarga ega bo`lishi kerak.

- biologiya;
- kimyo;
- axborot texnologiyalari;
- matematika;
- biofizika;

Xulosa. Dorishunoslik va tibbiyot oliygoxlari talabalarining bilim darajasi xar tomonlama, ya`ni ham nazariy ham amaliy jihatdan mukammal bo`lishini ta`minlash. Chunki bu mutaxassis egalarining olgan nazariy va amaliy bilimlari inson salomatligi bilan bog`liqdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:**

1. Berdiev Ch.X. Fizikani o`qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovasion pedagogik texnologiyalar. Uzbek Scholar Journal Volume-11, Dec., 2022//www.uzbekscholar.com.

2. Saylauov A.B., Beknazarov K.B. Zamonaviy talimda fizika-texnologiyani o`qitish usullari. «Молодой учёный». 2020. № 6 (296). B.281-296.